

ERASMUS + GEM – “Atrof-muhitni modellashtirish va boshqarishda geoaxborot tizimi (GAT) va Yerni tadqiq qilish” qo’shma magistratura dasturini e’lon qiladi



Yevropa Ittifoqining Erasmus+ fondi doirasida Shvetsianing Lund, Gollandiyaning ITC Twenty, Belgiyaning Luvayn hamda Estoniyaning Tartu universitetlari GEM MSc- “Atrof-muhitni modellashtirish va boshqarishda GAT va Yerni tadqiq qilish” mutaxassisligi bo'yicha 2 yillik qo'shma magistratura dasturida ta'lim olish uchun **grant** dasturini e'lon qiladi.

Talabgorlar:

- ***Shahar va qishloqlarni rejallashtishda GAT;***
- ***Yer resurlaridan foydalanishda GAT;***
- ***Ekotizimlar va tabiiy resurslarni boshqarishda GAT;***
- ***Oziq-ovqat xavfsizligida GAT*** yo'nalishlari bo'yicha hujjatlarini topshirishlari mumkin.

Hujjatlar joriy yilning 15 martiga qadar onlayn tarzda qabul qilinadi.

Nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

- Tanlagan yoki unga yaqin yo'nalish bo'yicha OTMni a'lo baholarga o'qib tugatgan hamda bakalavr diplomiga ega bo'lishi;
- Ingliz tilini bilish darajasi yuqori bo'lishi (minimum IELTS 6.5, TOEFL (PBT) 580 yoki TOEFL (IBT) 92);
- Tanlagan yo'nalishi bo'yicha tajriba va ish stajiga ega bo'lish.

Batafsil ma'lumotni quyidagi havola orqali olishingiz mumkin:

<https://www.gem-msc.eu/>

Ushbu tanlovda ishtirok etishni hohlovchi nomzodlar joriy yilning **15 martiga qadar** institutning Geodeziya va geoinformatika kafedrasi tayanch doktoranti **Zohid Mamatkulovga** telegram orqali (<https://t.me/ZokhidMamatkulov>) murojaat etishlari mumkin.